

INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA TALABALARLING KASBIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK JIHATLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15564850>

Xakkulov Y.A.

Babayeva M.A.

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

“Maktabgacha va boshlang’ich ta’lim” кафедраси v.b. dotsenti p.f.f.d.

E-mail: maxfuzababyeva7961@gmail.com Тел.: +998992019044

Annotasiya

Integrativ yondashuv muammosi pedagogikaning asosiy muammolaridan biri bo’lib, u ta’lim-tarbiya jarayoni qatnashuvchilarining o’quv bilish faoliyatini faollashtiradi, bilimlar sifatini oshiradi, ta’limning ilmiyligi, tushunarliligi, tizimliligi va mobilligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so’zlar

integrativ yondashuv, didaktika, talaba, ta’lim, fanlararo, tizimli bilimlar, tanqidiy, ijodiy fikrlash.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА

Хаккулов Ю

Бабаева М

Термезский университет экономики и сервиса

Кафедра «Дошкольное и начальное образование», к.ф.н.

Аннотация

Проблема интегративного подхода является одной из основных проблем педагогики, которая активизирует познавательную деятельность участников образовательного процесса, повышает качество знаний, служит повышению научности, наглядности, системности и мобильности образования.

Ключевые слова

интегративный подход, дидактика, студент, образование, междисциплинарность, системность знаний, критическое, творческое мышление.

PEDAGOGICAL ASPECTS OF THE FORMATION OF PROFESSIONAL TRAINING OF STUDENTS BASED ON AN INTEGRATIVE APPROACH

Xakkulov Y.A.

Babayeva M.A.

Termez University of Economics and Service

Department of Preschool and Primary Education, PhD

Abstract

The problem of the integrative approach is one of the main problems of pedagogy, which activates the cognitive activity of participants in the educational process, improves the quality of knowledge, serves to increase the scientific nature, clarity, systematicity and mobility of education.

Key words

integrative approach, didactics, student, education, interdisciplinarity, systematic knowledge, critical, creative thinking.

Yurtimizda ta'lim sohasidagi islohotlar ta'lim tizimini rivojlantirish, ta'lim sifatini yaxshilash va fanlar integrasiyasini amalga oshirish kabi vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasida oliy ta'lim tizimini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda fan, ta'lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash asosida ta'lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish [1], talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, o'quv jarayonida kompetentsiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish vazifalari ilgari surilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi oliy ta'limni rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo'nalishlari, vazifalari, o'rta va uzoq muddatli istiqboldagi bosqichlarini belgilaydi hamda sohaga oid dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo'ladi [1].

Har xil turdag'i bilimlar tizimlari ta'sirida shakllanadigan shaxsiy xususiyatlarni rivojlantirishda integrativ yondashuvning o'rni masalasi katta qiziqish uyg'otadi. Integrativ yondashuv talabalarning bilish faoliyatini umumiy

ilmiy g'oyalar va metodlar asosida qurish imkonini beradi. Ularda fan paydo bo'lishining umumiylarini o'rghanish va ochib berishning umumiylarini qobiliyatini shakllantiradi.

V.N.Fedorova, N.I.Boldirev, N.K.Goncharov, T.A.Ilina hamda G.I.Shukina kabi tadqiqotchilar o'quv faoliyatida aloqadorlikni didaktik vazifa deb hisoblaydilar va fanlar orasidagi bog'liqlik bilim olishni, o'rganganlarni tushunishni va uzviylikni oshirishga xizmat qilib, qatnashuvchilar faolligini oshirib, bilim darajasini rivojlantiradi. Didaktikada integrativ yondashuvni sinflarga ajratishning ob'yektiv asosi hisoblangan o'quv fanlari tuzilmasining umumiyligidan hamda o'quv jarayoni tuzilmasidan kelib chiqib, ularning uchta asosiy, ya'ni mazmunli-axborot, operasion-faoliyatli va tashkiliy-metodik tiplarga ajratilishi aniqlangan. O'tkazilgan tajribalar natijasida V.N.Maksimova fanlararo aloqadorlikni uch turga bo'lib o'rghanishni yoqladi: fan tushunchalari, bilimlar hosil qilish jarayoni, ta'limda qo'llaniladigan usullar va vositalar asosida [6].

B.S.Abdullayeva fanlararo aloqadorlikni quyidagi turlarga ajratadi: 1) mazmunli; 2) operatsion; 3) metodik; 4) tashkiliy va ko'nikma, malakalar fikrlash operatsiyalari orqali o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etadi deb ta'kidlaydi.

O'qitish jarayonida integrativ yondashuvni amalga oshirish imkoniyatlarini o'rghanish - ta'lif sifatiga ma'lum bir ta'sir qiladi. Bunga asosan, boshlang'ich jarayonda yangi ma'lumotlar bilan tanishish, ularni qabul qilish, natijada hodisalarini turli jihatdan o'rghanish, masalaga qaysi tomonidan yondashish mumkinligini payqash va tasavvur qilish aloqadorlikni rivojlantiradi [5].

Integrativ yondashuv asosida talabaning malakalarini shakllantirish sohasidagi tadqiqotlar turli darajadagi umumlashtirish qobiliyatidagi harakatlarning umumiylarini, maxsus va individual tarkibiy qismlarining o'zaro ta'sirini aniqladi. Ko'nikma va bilimlarning sub'yektivligi - bu turli xil o'quv fanlaridan harakat usullarini o'tkazish va umumlashtirish jarayonida olingan funksional sifatidir. Intersub'yektivlik bilim va ko'nikmalar sifatida ularning genezisini, ilmiy integrasiya jarayonida kelib chiqishini, turli fanlar chorrahasida yangi bilim va usullarning paydo bo'lishini aks ettiradi. Fanlararo ko'nikmalar-talabaning tegishli fanlardan bilim va ko'nikmalarni uzatish va umumlashtirish jarayonida aloqalarni o'rnatish va o'zlashtirish qobiliyatini hisoblanadi.


M.I.Aliyev oliy ta'lif muassasalarida pedagogik-psixologik fanlar misolida, talabalar o'quv faoliyatini faollashtirishda, integrativ yondashuvni tatbiq etishga alohida e'tibor qaratadi [4]. Talabada tabiiy turkumdagi fanlardan, integrativ yondashuv asosida, tayanch kompetensiyalarni rivojlantirish ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga, aqliy rivojlanishga, bilim va malakalarni tizimli egallashga, turli muammolar, vaziyatlar, hodisalarini to'la anglay olishga xizmat qiladi.

Tabaqalashtirilgan tayyor bilim reproduktiv fikrlashni shakllantirsa, bilimlarni integrasiyalash ijodkorlikni rivojlantiradi.

Fanlarni o'rganish davomida darsliklardagi tushuncha va hodisalarning takrorlanishi fanlararo assosiasiyalarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Natijada talabaning assosiativ fikrlash faoliyatini rag'batlantiradigan o'qitish usullaridan foydalanish zarurati paydo bo'ladi va talaba tushunchalardan keng doirada foydalana boshlaydi hamda turli fanlarni bir-biriga bog'liq holda o'rganishga kirishadi.

Bundan kelib chiqadiki ta'limda integrativ yondashuvni ro'yobga chiqarish quyidagi pedagogik-didaktik imkoniyatlarga tayanadi: 1) Jismarning hodisalari va xossalari har tomonlama va chuqurroq o'rganish natijasida ilmiy bilimlarni oshirish; 2) Tizimli bilimlarni ta'minlanishi natijasida ong va faoliyatning rivojlanishiga erishish; 3) Moddiy olam birligini hodisalarning munosabati va o'zaro bog'liqligini ochib berish orqali talabaning dunyoqarashini shakllantirish; ya'ni fanlararo tushunchalar va mavzularni mukammal tushuntirish, natijada turli ilmiy va texnik jarayonlarning yetuk mutaxassisini shakllantirishni nazarda tutadi [3]; 4) Fanlarni o'qitishni insonparvarlik yondashuvini qo'llash; talabada ekologik ta'limni amalga oshirish, bu jarayonga jalb qilmasdan muammoni hal qilish mumkin emas; 5) Talabaning fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish; [3] (1-rasm).

Integrativ yondashuvni amalga oshirish jarayonida tizimlararo birlashmalarning o'rnatilishi talabaning aqliy faoliyatida o'zgarishlarga olib kelganligi sababli fikrlash yanada moslashuvchan, umumlashtirilgan bo'ladi. Aniq amaliy topshiriqlarni bajarishda egallangan bilimlarni qo'llash talabadan o'quv fanlaridagi tegishli mavzularni ajratib olishni talab qiladi. B.G.Ananyevning fikricha, integrativ yondashuv bir butun tizimli bilimlar shakllanishining majburiy sharti hisoblanadi.



1-rasm. Integrativ yondashuvning pedagogik didaktik imkoniyatlari

O'rganilgan bilimlardan faoliyatning turli sharoitlarida foydalana olish qobiliyatining rivojlanishi integrativ yondashuv asosida tayanch kompetensiyalarni o'rnatish muammosi yechimining muhim jihatni hisoblanadi. Bu esa P.G.Kulagin e'tiroficha, avvaldan ko'ra bilish va ifodalashni rivojlantirishga asos bo'ladi. Bilimlarni turli fanlarda qo'llash mahorati ongda qo'shimcha xossalarni paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Bitta fanda ikkinchi fanni qo'llash jarayonida olingan bilim va mahoratni o'tkaza olish usulini egallash talabaning tahliliy-sintetik faoliyatiga katta darajadagi maqsadga yo'naltirilganligini, faoliik va mustaqillik oshishini, hayotiy amaliy masalalarni samarali hal qilish usullari va mantig'ini o'zlashtirishga yordam beradi [2].

Integrativ yondashuvni amalga oshirishda qatnashuvchilarning qobiliyatlari, idroki, ongi, dunyoqarashi kabi psixologik jihatlarini e'tiborga olish zaruriy omillardan biri hisoblanadi. Ta'linda predmetlararo bilimlarni shakllantirish natijasida o'zaro bog'liqlikdagagi fanlarni yaxlit tasavvur qilish imkoniyati yaratiladi.

Demak, ta'lum jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo'llash-guruhlarda, kichik guruhlarda ishlash jarayonida o'quvchi shaxsini hurmat qilish, o'z qarashlarini namoyon qilishga yo'l berish, xatolarini anglashga o'rgatish, bir nechta variantlardan eng to'g'risini tanlashga undash va bular orqali talabada tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishni namoyon qiladi .

Xulosa. Ta'lum jarayonida integrativ yondashuvni ta'minlashning pedagogik ahamiyati shundaki, u o'quv-tarbiya jarayonini barcha elementlari: mazmun, shakl, usul va vositalarini yaxlit tarzda birlashtirib, uning samarali bo'lishiga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmoni.
2. Saidnazarova G. Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy madaniyatni shakllantirishning pedagogik omillari // Ijtimoiy sohani modernizasiyalash kontekstida pedagogik ta'lum taraqqiyoti: muammo va istiqbollar: Respublika ilmiy nazariy anjumani materiallari. – Buxoro: BDU, 2021. – B. 211.
3. Оз Йунус. Система выявления и разработки индивидуальных траекторий обучения одаренных детей в турции // Вестник челябинского государственного педагогического университета. – ЮУрГПУ, 2016. - №4. – С 59-63.
4. Алиев М.И. Межпредметные связи как условие активизации учебной деятельности студентов.: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Тбилиси: Тбил. гос. пед. ин-т им. А.С.Пушкина, 1986. – 20 с.
5. Xasanov A.A. O'qitish jarayonida fanlararo aloqadorlikni amalga oshirishning psixologik-pedagogik asoslari // Zamonaviy ta'lum. – Toshkent, 2017. - № 10. – B. 9.
6. Максимова В.Н. Интеграция в системе образования. – Санкт-Петербург: ЛГОУ, 2000. – 124 с.